

XITOIY TILIDA SHART ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLARDA ASINDETON



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352436>

SUNNATULLAYEV Samariddin

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

This article is devoted to the expression of
assyndeton in complex sentences of Chinese
language.

Shart ergash gapli qo‘shma gaplarda sintaktik bog‘lanishning turli xil vositalari qo‘llaniladi. Mazkur turdagi gaplarda ohang va qismlarning joylashish tartibidan tashqari bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar, bog‘lovchili frazeologik birliklar ham ishlatiladi. Yuqorida keltirilgan bog‘lanish vositalaridan eng muhimi bog‘lovchilardir. Ular soni jihatdan ham boshqa vositalardan ustun turadi va qo‘shma gaplar qismlari orasidan mazmun munosabatlarini eng aniq va to‘la ifoda etishi bilan farq qilish xususiyatiga ega.

Tahlil qilinayotgan gap turlarida ham yakka holda ishlatiladigan, ham juft holda ishlatiladigan bog‘lovchilardan foydalaniladi. Yakka holda ishlatiladigan bog‘lovchilar, qoidaga ko‘ra, qo‘shma gapning ¹ tobe qismida, juft bog‘lovchilarning komponentlari esa gapning ikkala qismida joylashadi. Turli guruh shart bog‘lovchilari turlicha pazitsion imkoniyatlarga ega. Aytaylik, oddiy bog‘lovchilar qo‘shma gap qismlarining to‘g‘ri tartibda joylashgan hollarda ishlatiladi, yana, asosan, ergash gapning ega va kesim orasidan joy oladi.

Yasama bog‘lovchilar ancha katta pozitsion imkoniyatlarga ega. Ulardan ayrimlarini qo‘shma gap qismlari to‘g‘ri tartibda joylashganda ishlatiladi. Shuningdek, ba‘zan yasama bog‘lovchilarni qo‘shma gapning tobe qismi tobelashgan qismining ega va kesim orasida joylashgan hollarda ishlatilishi kuzatiladi. Ko‘p yasama bog‘lovchilar ikki holatda ishlatiladi: ergash gapning egasi oldidagi va undan keyingi pozitsiyasida.

Juft bog‘lovchilar qo‘shma gap qismlarini faqat to‘g‘ri tartibda joylashganda ishlatiladi. Juft bog‘lovchilarning birinchi komponentlari ergash gapning egasi oldida yoki undan keyin joy olishi mumkin, ikkinchi komponenti esa bosh gapning hamisha eng boshida bo‘ladi.

Shart bog‘lovchilari maqsad va sabab bog‘lovchilaridan farq qilgan holda bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar bilan birga ishlatiladi. Shart ergash gapli qo‘shma gaplarda 就 jiù, 便 biàn, 才 cǎi yuklamalari ayniqsa ko‘p qo‘llanadi. Bu hol shunday izohlanadiki, qayd etilgan yuklamalar voqelikka boshqa bir dalillar sabab bo‘lgan mazmundagi gaplarda ishlatiladi. Shart bog‘lovchilari, shuningdek, 也 yě, 又 yòu, 还 hái yuklamalari bilan ham ishlatiladi.

Bog‘lovchili frazeologik birlik shart ergash gapli qo‘shma gaplarning qismlarini biriktiruvchi vosita sifatida hozirgi zamon xitoy tilida juda keng qo‘llanadi va og‘zaki nutqda hamda baihua uslubida yozilgan asarlarda ishlatiladi. Bog‘lovchili frazeologik birliklar, ko‘pincha, bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar bilan birga ishlatiladi.

Shart bog‘lovchilarini ishlatilishi to‘g‘risidagi masalalarni o‘rganib chiqqandan so‘ng, biz mazkur semantik guruhga tegishli bo‘lgan ayrim yakka holda ishlatiladigan bog‘lovchilarni

¹Yakka bog‘lovchilarning tobe qismlarida ishlatilishi kamdan-kam uchraydi va faqat bog‘lovchili frazeologik birliklarning tobe qismidagina kelishi mumkin.

ishlatilish xususiyatlarini aniq misollar asosida ko‘rib chiqamiz. Avval eng umumiy shart mazmunini ifodalaydigan yakka holda ishlatiladigan bog‘lovchilarni ishlatilishiga misol keltiramiz.

1. 你要不来，会议（就）开不成了。

Agar sen kelmasang unda yig‘ilish o‘tkazilmaydi.

Ushbu gapda 就 ravishi tushirib qoldirilishi ham mumkin. Bunda gapning gapning mazmuni o‘zgarmaydi. Ushbu gapda [要是 ...就...。] grammatik konstruksiyasi qo‘llanib,就 ravishing tushirib qoldirilishi orqali asindeton namoyon bo‘ladi.

2. 我要是大少爷，我一个子儿也不给你²。

Agar men xo‘jayinimizning katta o‘g‘lini o‘rnida bo‘lganimda, sizga bir tiyin ham bermagan bo‘lar edim.

Mazkur gapning ikkinchi qismida 就 ravishi tushirib qoldirilgan, bu holat ham gapning mazmuniga ta‘sir qilmaydi. Ushbu gapda ham [要是 ...就...。] grammatik konstruksiyasi qo‘llanib,就 ravishing tushirib qoldirilishi orqali asindeton namoyon bo‘ladi

3. 你要是再给她一个不痛快，我就把您这两年作的事都告诉哥哥。

Agar siz yana bir marta unga yomonlik qiladigan bo‘lsangiz, men katta akamga shu ikki yil ichida nimalar bilan shug‘ullanganingizni aytib beraman.

Mazkur gapda 就 ravishi qo‘llanishi shart, shu orqali gap ohangi kuchaytiriladi.

4. 倘若你不肯，我(也)不叫你为难。

Agar sen xohlamasang, men senga halaqit bermayman.

Ushbu gapda 也 ravishi tushirib qoldirilishi ham mumkin. Bunda gapning gapning mazmuni o‘zgarmaydi.

Quyida biz ko‘pincha qo‘shimcha leksik ma‘nodan kelib chiqib haqiqatdan shart mavjud bo‘lgan holda ishlatiladigan shart bog‘lovchilarini ([agar haqiqatdan, agar chindan ham..., unda...]) ko‘rib chiqishga o‘tamiz.

1. 如果你不答应，他们也会强迫你答应。

Agar sen rozi bo‘lmasang, ular baribir seni rozi bo‘lishga majbur qilishlari mumkin.

Ushbu gapda [如果 ...那么...。] grammatik konstruksiyasi qo‘llanib, 那么 ravishing tushirib qoldirilishi orqali asindeton namoyon bo‘ladi.

2. 我如果处在你底地位，我快不像你这样懦弱无用³。

Men sening o‘rningda bo‘lsammidi, hech qachon sen kabi shunchalar nochor bo‘lmas edim.

Ushbu gapda ham [如果 ...那么...。] grammatik konstruksiyasi qo‘llanib, 那么 ravishing tushirib qoldirilishi orqali asindeton namoyon bo‘ladi. Biroq gapning ikkinchi qismida [不像...这样（那样）] grammatik konstruksiyada 这样 qo‘llanishi shart, shunki gaining uchbu so‘zi bevosita 懦弱无用 frazeologik birikmasi bilan bog‘liq.

假使 jiǎshǐ, 倘若 tāngshǐ, 假设 jiǎshè, 假如 jiǎrú, 假若 jiǎruò kabi shart bog‘lovchilariga kelsak, ularga xos bo‘lgan qo‘shimcha leksik ma‘nodan kelib chiqib (agar mobodo, agar tahminan) asosan taxminiy shartni ifodalovchi gaplarda ishlatilishi lozim. Ammo bu bog‘lovchilar ham taxminiy shartni ifodalovchi gaplarda, ham haqiqiy shartni ifodalovchi gaplarda birdek keng qo‘llanadi.

1. 假若你不反对，我明天就去通知他。

Agar sen qarshi bo‘lmasang, men ertaga unga ma‘lum qilgani boraman.

²故播刘.实用现代汉语语法.- 北京, 2003 年, 207-页.

³李稿. 现代汉语动词研究.- 北京, 2004 年, 154-页.

Ushbu gapda [假若..., 就...] konstruksiyasi qo‘llanilgan. Aytib o‘tish joizki, ushbu grammatik konstruksiyasida 就 ravishi tushib qoldirilishi ham mumkin. Lekin yuqorida keltirilgan gapda ushbu ravish 马上 ma’nosini berib, hatti-harakat tez sodir bo‘lishini ifodalaydi, shu sababdan ham tushirib qoldirilishi mumkin emas.

2. 你倘使不愿, 我不坚持⁴。

Agar sen hohlamasang, men qattiq turib talab qilmayman.

Ushbu gapda asindeton hodisasi 也 ravishini tushirib qoldirilishi orqali namoyon bo‘ladi. [倘使...也...] konstruksiyadagi 也 ravishing tushirib qoldirilishi gapning mazmuni o‘zgartirmaydi.

REFERENCES

1. 李稿. 现代汉语动词研究.- 北京, 2004年.
2. 李金斯. 汉语词汇研究.- 北京, 2001.
3. 故播刘. 实用现代汉语语法.- 北京, 2003年.
4. S.Hashimova. Xitoy tilida so‘z yasalishi. – T., 2012.
5. С.А. Хашимова. ХОЗИРГИ ХИТОЙ ТИЛИ СИФАТЛАРДА КОНВЕРСИЯ ХОДИСАСИ- МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 2020
6. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
7. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
8. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ*. 391 с (p. 361).
9. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
10. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
11. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
12. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
13. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
14. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
15. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
16. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.

⁴李金斯. 汉语词汇研究.- 北京, 2001年, 56-页.

-
17. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
18. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
19. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化 · 87, 0
20. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
21. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019